Alisher Navoiy - buyuk shoir va mutafakkir

Respublikamizda 9-fevral har yili an’anaviy tarzda o‘zbek adabiyoti tarixining yorqin siymosi, buyuk mutafakkir va davlat arbobi Alisher Navoiyning tavallud kuni sifatida keng nishonlanadi.

Shu munosabat bilan 8-fevral kuni O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori institutida A.Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi va O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi bilan hamkorlikda hazrat Alisher Navoiy tavalludining 578 yilligiga bag‘ishlab “Alisher Navoiy adabiy va ilmiy merosini o‘rganish masalalariga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy anjumanning 64-yig‘ilishi” bo‘lib o‘tdi. Anjumanda shoir va yozuvchilar, yosh tadqiqotchilar, respublikamizdan va qo‘shni hamdo‘stlik mamlakatlaridan tashrif buyurgan yirik navoiyshunos olimlar ishtirok etdi.

Hindistonning Javohirla’l Neru universiteti professori Axloqiy Ahmadi Ohan Hindistondagi fors tilli adabiyotga o‘rta osiyolik shoir ijodkorlar, ayniqsa, Alisher Navoiyning ta’siri beqiyos ekanligini alohida ta’kidladi.

Anjumanda shoirning o‘zbek va jahon adabiyotida tutgan o‘rni, nasriy va she’riy asarlari tahlili, adib asarlarini qiyosiy aspektda o‘rganish masalalari, daho shoir va buyuk mutafakkir ilmiy va ijodiy merosining boshqa davlatlarda o‘rganilishi kabi masalalarga bag‘ishlangan ma’ruzalar tinglandi.